



O'ZBEK DIALEKTOLOGIYASIDA O'ZBEK SHEVALARI LEKSIKASIGA DOIR AYRIM QAYDLAR

Normurodova Nargiza

*Termiz davlat universiteti Filologiya va tillarni o'qitish o'zbek filologiyasi fakulteti
O'zbek tili ta'lif yo'nalishi*

Annotatsiya: Ushbu Tezisda o'zbek dialektologiyasi leksikasiga doir mulohazalar hamda muhokamalar haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: dialektologiya, sheva, lahja, leksika , leksema.

O'zbek shevalari o'zbek tilining mahalliy ko'rinishi sifatida undagi bo'lgan aksariyat qatlamlami o'zida birlashtiradi, binobarin, o'zbek tili leksik qatlamlari quyidagicha bo'ladi:

1. Umumturkiy so'zlar.
2. O'zlashgan so'zlar:
 - arab tilidan o'zlashgan so'zlar;
 - forsiy tillardan o'zlashgan so'zlar;
 - rus tili va u orqali o'zlashgan so'zlar.
3. O'zbek tili sharoitida yaratilgan so'zlar.
4. Shevalarning maxsus so'zları.

Umumturkiy so'zlar aksariyat turkiy tillarda va shevalarda qo'llanadi hamda ular o'zbek shevalarida adabiy tildagi talaffuzini saqlashi ham mumkin yoki kuchli va kuchsiz fonetik o'zgarishga uchrashi ham mumkin. Bunga **yer/žer**, **ish/is**, **bash/bas** kabi va boshqa turli sohalarga oid/ so'zlar taalluqlidir. Shevalar lug'at tarkibining salmoqli qismini umumturkiy so'zlar tashkil etadi.

Arab, fors-tojik rus tilidan o'zlashgan so'zlar shevalarda, asosan, fonetik qulaylashtirilgan holda iste'molda bo'ladi. Ilmiy-tadqiqot ishlari natijalari shuni ko'rsatadiki, shevalar lug'at tarkibida forscha-tojikcha so'zlar ko'proq, arabcha so'zlar unga nisbatan kamroq, ruscha-baynalmilal so'zlar juda kam uchraydi, bu esa bunday so'zlarning o'zlashish jarayoni ko'proq

vaqt talab qilishi bilan bog'liq ekanini ko'rsatadi.

O'zbek tili tarixiy taraqqiyoti davomida turkiy va turkiy bo'lmagan til unsurlari negizida yangi so'zlar ham yasalgan. Bu ayniqsa, fan texnika, bozor iqtisodi bilan bog'liq so'z va terminlarning yasalishida ko'rinishi. Ularning asosiy qismi boshqa tillarga, lekin yasovchi unsure (elementlari) o'zbek tiliga oid 'bo'ladi va u yasama so'z o'zbek tilidagina qo'llanadi, masalan, *ishxona*, *bizneschi*, *tasvirchi* va boshqalar. Bular. albatta, shevalarda ham ayrim fonetik o'zgarishlar bilan qo'llanadi va sheva mulki bo'lib qoladi.¹

Tarixiy: al-qo'l-[qol], mujgon-kiprik-[kirpik], gisu-soch-[čāč]

¹ Ashurboyev.S.Ozbek dialektologiyasi. T-2019.



Sinxron: shifoxona-balnissa-[bälñissä], tuman-rayan-[räjän], viloyat-oblasi-[äbläs], yetakchi mudir- adlkadr-[ädlkädr].

Hozirgi o'zbek dialektologiyasi fani kundan-kunga rivoj topib bormoqda, buning rivojiga katta miqdorda hissa qo'shayotgan qatlam bu sinxron so'zlar kata ahamiyat kasb etmoqda.